



ТАСДИҚЛАЙМАН

Кўштепа туман Халқ таълими бўлими
мудири Н.Мадалиев

07. 10. 2022 йил

Кўштепа тумани

Кўштепа туман Халқ таълими бўлими томонидан 23.09.2022 йил кунги лот № 22110012154576-сон билан Кўштепа туман Халқ таълими бўлимига қарашли 17,45,49 умумтаълим мактабига жорий таъмирлаш ишларини давлат харидлари порталига кўйилган эълон якуни бўйича Йигилиш

БАЁНИ № 7

Катнашдилар:	Н.Фофуров	-Махсус таъмирлаш эксплуататсия бўлими бошлиғи
	Ш.Усмонов	-Махсус таъмирлаш эксплуататсия бош мухандиси
	И.Мамадалиев	-Махсус таъмирлаш эксплуататсия бўлими мухандиси
	Н.Мадоров	-Махсус таъмирлаш эксплуататсия бўлими мухандиси
	И.Шокиров	-Бош хисобчи
	Б.Махмудов	-Метадист
Йигилиш Котиби	F.Мирахмедов	-хисобчи

Энг яхши таклифни танлаш учун келиб тушган таклифлар:

- 1 ООО KAMOLXONOV JAHON
2. ЧП BUNYODKOR MAXSUS INVEST
3. АЗАМАТ КУРИЛИШ БУВАЙДА ФАЙЗ ХК
4. "SHUXRAT QURILISH TAMIRLASH" хусусий корхонаси

Йигилишда, иштирокчилар томонидан келиб тушган таклифлар баҳолангандан сўнг 2 иш куни мобайнида мухокамада бўлган. Ушбу муддат ичida иштирокчи корхоналар томонидан хеч қандай эътиrozлар келиб тушмади. Юқоридагиларни инобатга олиб комиссия

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Ўтказилган энг яхши таклифни танлашда энг юқори балл тўплаган голиб иштирокчи "SHUXRAT QURILISH TAMIRLASH" хусусий корхонаси билан шартнома имзолансин ҳамда энг яхши таклифни танлаш натижалари ҳақидаги маълумотлар (йигилиш баёни ва шартнома нусхаси) тегишли тартибда Давлат харидларини ўтказиш маҳсус ахборот порталига жойлаштирилсин.

Ушбу қарорни бажарилишини назорат қилиш комиссия зиммасида қолдирилсин.

Комиссия аъзолари

Н.Фофуров

Ш.Усмонов

И.Мамадалиев

Н.Мадоров

И.Шокиров

Б.Махмудов

F.Мирахмедов

Йигилиш котиби:

ShARTNOMA № 7**(Joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish xaqida)**

Qo'shtepa tuman Xalq ta'limi bo'limi keyingi o'rinnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiluvchi nomidan raxbari N.Madaliev bir tomondan va "ShUXRAT QURILISH TA'MIRLASH" xususiy korxonasi keyingi o'rinnlarda «Pudratchi» deb yuritiluvchi nomidan raxbari Sh.Axmedov ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

Shartnoma premeti

1.1. Pudratchi o'z zimmasiga buyurtmachining topshirig'iga asosan Qo'shtepa tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 17-,45-,49-umumta'lim maktablarida joriy ta'mirlash ishlarini bajarishni o'z zimmasiga oladi xamda amaldagi qurilish me'yor va qoidalari bo'yicha sifatlari ish bajaradi.

Shartnoma baxosi

2.1. Shartnoma baxosi 90 000 000 (To'qson million) so'mni tashkil qiladi.

3 To'lov shartlari

3.1. Bajariladigan ishlar qiymatini 30 % miqdorida Buyurtmachi tomonidan oldindan Pudratchi xisob raqamiga xaq o'tkazib beriliadi.

3.2. Bajarilgan ta'mirlash ishlari Buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda tegishli qurilish me'yorlariga rioya qilgan xolda F-2 dalolatnomasi asosida qabul qilib olinadi

3.3. Shartnoma buyicha bajarilgan ish uchun xisob-kitob xar oyning yakunida amalga oshiriladi va yakuniy xisob kitob ishi to'liq tamomlangandan keyin, (bunga ishni qabul qilib olish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilishni xam qo'shib) Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

3.4. Bajarilgan ishni maxsus komissiya tomonidan qabul qilib olinmasa, bajarilgan ishga xaq to'lash ishlari amalga oshirilmaydi.

4. bajarish muddatlari

4.1. Pudratchi ushbu shartnomaning 1 bo'limida nazarda tutilgan ishlarni belgilangan kalendar ish rejasida nazarda tutilgan muddatlarda bajaradi.

4.2 Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishga belgilangan muddatda xaq to'lashi maxalliy byudjetdan muntazam ravishda mablag' ajratib berishga bog'lik ekanligini, shu sababdan bajarilgan ishlar uchun xaq to'lab berish muddati 1-yilgacha chuzilishi mumkin. Bu muddat bajarilgan pudrat ishi yakunini maxsus komissiya (davlat komissiyasi) tomonidan qabul qilib olingan sanadan xisobga olinadi.

4.3 Pudratchi tomonidan loyixa-smeta xujjatlaridan chetga chiqgan xolda bajarilib, ish sifati yomonlashtirilgan taqdirda, taraflar kelishuviga muvofiq belgilangan muddat davomida mavjud kamchiliklarni Pudratchi o'z xisobidan bepul bartaraf etish.

5. Taraflarning majburiyatları**5.1. Pudratchi:**

5.1.1 Pudratchi Shartnomaning 3.1 bandida ko'rsatilgan mablag' o'tkazilgandan so'ng 2 ish kuni ichida joriy ta'mirlash ishlarini boshlaydi va 15 kalendar kun ichida yakunlaydi.

5.1.2. Ta'mirlash ishlarni to'la xajmda va muddatida bajarilishi va tegishli loyixa xujjatiariagi xolatida ishlarni Buyurtmachiga beigilangan muddatda topshirilishi;

5.1.3. Ob'ektga loyixaga binoan zarur bo'lgan materiallarni konstruksiyalarni butlovchi ashyolar yetkazib berish va ularni qabul qilish, tushirish taxlash xamda saqlashni amalga oshirish.

5.1.4. Ushbu shartnama bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalg qilinadigan maxsus tashkilotlar bilan subpudrat shartnomalarini tuzgani to'g'risida buyurtmachiga axborot berish va u tomonidan ishlarni bajarilishi yuzasidan nazoratni ta'minlash:

5.1.5. Texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va ob'ektni qo'riqlash bo'yicha zaruriy chora tadbirlarni bajarilishini ta'minlashi kerak.

5.1.6 Pudratchi ob'ektida qurilish ishlari boshilashdan avval ob'ekti bo'yicha o'zining mas'ul xodimini (javobgar shaxsni) buyruq asosida tayinlash.

5.2. Buyurtmachi:

5.2.1. Kalendar ish rejasida belgilangan xajmda va muddatda ob'ektni Pudratchiga topshirishi.

5.2.2. Ushbu shartnomaning birinchi bo'limida nazarda tutilgan ishlarga shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda Pudratchiga xaq to'lashi shart.

5.2.3. Pudratchidan yozma xabarnoma olgan sanadan boshlab 2 xafka ichida ob'ektni qabul qilishi shart.

5.2.4. Ob'ekt binoning ichkari qismida joylashgan bo'lsa qo'riqlash uchun buyurtmachi tomonidan ob'ektni qo'riqlash uchun mas'ul xodim biriktirilishi lozim.

6.Taraflarning javobgarligi

6.1. Pudratchi shartnama shartlarini buzsa belgilangan muddatda pudrat ishlarini tugatmasa kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,5% penya to'laydi.

6.2. Jami tomonlardan undirilgan penya summasi nizoli summaning 50% oshmasligi lozim.

6.3 Ob'ekt qabul komissiyasiga topshirilganidan so'ng buyurtmachi xamda boshka xuquqni muxofaza qiluv organlar tomonidan nazorat-o'chov tekshirish ishlari o'tkazilganda, tekshirish ishlari yakunlanguniga qadar tekshirish joyida bo'lish, Pudratchi tomonidan bajarilgan qurilish ishlari bo'yicha kamchiliklar aniqlansa, javobgarlikni Pudratchi o'z zimmasiga olgan xolda, aniqlangan kamchiliklarni o'z xisobidan bartarf qilish, shuningdek qonun xujjalari uchun nazarda tutilgan boshqa xuquq va majburiyatlarni bajarishni o'z zimmasiga oladi.

6.4 Pudratchi pudrat shartnomasi tuzilgan vaktda yagona soliq to'lovchisi bo'lib, joriy ta'mirlash ishlari yakunlaguniga qadar solik turini o'zgartirmaslikni va umumiy solik to'lash tizimiga o'tmaslikni o'z zimmasiga oladi, agar Pudratchi umumiyl soliq to'lovchi ekanligini yashirsa yoki ushbu solik turida faoliyat olib borsa, Byurmachi tomonidan ushbu solik turi bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar amalga oshirilmaydi.

6.5 Pudratchi mazkur shartnama bo'yicha barcha ishlarning bajarilishi xamda ob'ektda bajarilgan ishlarini topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

6.6 Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tuzilgan shartnama bo'yicha o'r ganilganda tovar maxsulotlari (bajarilgan ish xizmatlar) narxlari balandligi yoki olib kelingan tovar maxsulotlar (bajarilgan ish xizmatlar) xajmida kamomad aniqlangan taqdirda ushbu kamomad va tovar maxsulotlari (bajarilgan ish xizmatlar) narxlaridagi ortiqcha xisoblangan mablag' farqi «Pudratchi» tomonidan undiriladi.

7. Fors-mojorxolatlari

7.1. Taraflarning birortasi xam boshqa tarafning oldida ushbu shartnama bo'yicha olingan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lган va ularni oldindan ko'ra bilishi yoki bartaraf etishi mumkin bo'lmagan va xatolar unga qo'shilib urish e'lon qilinishi yoki amalda boshlanganligi fukarolik tartibsizligi, vabo tarqalishi, blokada, embargo, yer yemirilishi, suv bosishi, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar bilan bog'lik xolda shartnomalarini bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydi.

7.2. Bartaraf qilib bo'lmaydigan kuchlarni mavjudligi yoki amalda davom etayotganligi O'zbekiston Respublikasi Xukumatining shunga oid qarorlari yoki boshqa vakolatlari organlar tomonidan berilgan guvoxnomalarning yetarli darajadagi tasdig'i bo'lib xisoblanadi.

7.3. O‘z majburiyatini bajarmagan taraf shartnomaga bo‘yicha majburiyatni bajarishga uni ta’sir ko‘rsatishi yoki moneylilik qilishi to‘g‘risida boshqa tarafga imkon qadar tezda xabar berishi lozim.

7.4. Agar bartaraf qilib bo‘lmaydigan kuchlar 3 oy davomida muntazam ta’sir etayotgan bo‘lsa va tugash belgilari aniqlanmasa, buyurtmachi va pudratchi boshqa tarafga xabar yuborish yo‘li bilan ushbu shartnomaga bekor qilinishi mumkin.

8.Nizolarni xal qilish tartibi

8.1. Taraflar o‘rtasida ushbu shartnomaga bo‘yicha yoki u bilan bog‘liq paydo bo‘ladigan barcha nizolar yoki kelishmovchiliklar taraflar o‘rtasida muzokara yo‘li bilan xal qilinadi.

8.2. Agar kelishmovchiliklarni muzokara yo‘li bilan xal qilib bo‘lmasa ular qonun xujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudida qurilishiga tegishli bo‘ladi.

9. Shartnomaga qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritish tartibi

9.1. Ushbu shartnomaga xar qanday kiritilgan qo‘srimcha va o‘zgartirishlar yozma ravishda rasmiylashtirilib xar ikkala taraf imzolagan xollarda xaqiqiy kuchga ega bo‘ladi.

9.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish taraflarning kelishuviga bo‘yicha yoxud O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Fukarolik kodeksi va qonun xujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha yetkazilgan zararlarni qoplash yo‘li bilan amalgaloshirilishi mumkin.

9.3. Buyurtmachi quyidagi xollarda shartnomani bekor qilishga xaqli:

Pudratchining aybi bilan ishlarni borishini sustkashlik bilan to‘xtatib turilishi, ya’ni ushbu shartnomadagi ishlarni tamom bo‘lish muddati 1 oydan ko‘pga oshib ketganda: Pudratchining shartnomaga shartlarini buzishi natijasida loyixada ko‘rsatilgan ishlarni sifati pasayganda;

9.4. Pudratchi quyidagi xollarda shartnomani bekor qilishga xaqli:

Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga bog‘liq bo‘limgan sabablar bo‘yicha qurilish montaj ishlarni borishini 1 oydan oshadigan muddatda to‘xtatib turganda: Buyurtmachi tomonidan keyinchalik qurishni moliyalash imkoniyati yuqolganda.

9.5. Buyurtmachi va Pudratchining birgalikdagi qarori bo‘yicha shartnomani bekor qilinganda Buyurtmachiga tugatilmagan qurilish topshiriladi. Buyurtmachi esa pudratchiga ular tomonidan aniqlangan bajarilgan ishiarning xajmi qiymatini to‘laydi.

9.6. Shartnomani bekor qilishga qaror qilgan taraf boshqa tarafga yozma xabarnoma yuboradi.

10. Boshqa shartlar

10.1. Ob’ektlar va unga kiruvchi injinerlik tizimlari jixozlar materiallar xamda ishlarning me’yorida ishlashiga kafolatlangan muddati uning uchinchi shaxslar tarafidan ko‘zlangan niyatda shikast yetkazgan xollar bundan istisno qilinadi. Ob’ektni qabul qilish tug‘risidagi dalolatnomani taraflar imzolagan vaqtidan boshlab 2 oy davomida belgilanadi.

10.2. Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlarga 3 yil kafolat muddati belgilangan.

10.3. Kamchiliklarning mavjudligi va ularning bartaraf qilish muddatlari pudratchi va buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasi aks ettiriladi.

10.4. Agar pudratchi aniqlangan kamchiliklar dalolatnomasi ko‘rsatilgan muddat ichida bajarilgan ishlarning bunga jixozlarni xam qo‘sib kamchiliklarni bartaraf qilmasa ularni buyurtmachi boshqa bajaruvchining kuchi bilan xarajatlarni pudratchi to‘lashi orqali bartaraf qilishiga xaqli.

10.5. Pudratchi aniqlangan kamchiliklar tasdiqlash dalolatnomasini tuzish yoki imzolashdan bosh tortganda buyurtmachi malaka eksertizasini tayinlaydi. Eksertiza kamchiliklar va ularning tuslarini aks ettirish bo‘yicha tegishli dalolatnomasi tuzadi xamda tarafning mazkur masala bo‘yicha iqtisodiy sudiga murojaat qilish xuquqini istisno qilmaydi.

10.6. Pudratchi qurilish ob'ektini loyixa xujjatlarini yoki uning ayrim qismlarini buyurtmachining yozma ruxsatisiz birorta uchunchi shaxslarga sotish yoki berish xuquqiga ega emas.

10.7. Ushbu shartnomaga bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi va xar bir tomonda bir nusxadan saqlanadi.

10.8. Taraflarning xoxishiari bo'yicha boshqa shartlar.

10.9. Shartnomaga ikki tomonlhma imzolanib, g'aznachilik bo'linmasi tomonidan belgilangan tartibda ruyxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi va "31" dekabr 2022 yilgacha amalda bo'ladi

11. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TUGRISIDA.

11.1. Tomenlar ularning afillangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari ushbu shartnomaga buyicha uz majburiyatlarini bajarishlari davomida korupsiyaga qarshi kurashish soxasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlarini talablarining buzilishiga olib keladigan yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni vada qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bulish xatti xarakatlari va xarakatsizliklarini sodir etmaydilar.

-Tomonlar, ularning afillangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa tomoning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan shu jumladan pul summalarini, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarning beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi tomon foydasiga kandaydir xatti xarakatlarni/xarakatsizliklarni bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

11.2. Tomonlar ushbu shartnomaning 11.1-bandidagi talablarni buzhish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi tug'risidagi shubxalar yuzaga kelgan takdirda, tegishli tomon bu xaqida ikkinchi tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish soxasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlarining normalari buzilganligi faktini rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan xolda esa-amaldagi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organlarni xam xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

12. Tomoniarning yuridik manzili va bank rekvizitlari:

«Pudratchi» «Buyurtmachi»

"SHUXRAT QURILISH TA'MIRLASH"

xususiy korxonasi

(tashkilot nomi)

Ko'shtepa tuman Xalq ta'limi bo'limi

(byudjetdan mablag' oluvchining nomi)

Manzil:Farg'ona shaxar Xasanova 1 uy

Manzil:Qo'shtepa tuman Qiyqi MFY Sardoba ko'chasi 3i uy

INN 302768015

Tel/faks +998916692755

sh/h*
• 100022860302067092100075050

h/r 20208000300269034001

Bank nomi.Universalbank

STIR 200178073 OKONX 92310

MFO 01131

Moliya Vazirligi G'aznachiligi

OKONX 61124



Rahbar

(E.I.Sh)

Sh.Axmedov

(imzo)

G'azna h/v 23492000300100001010
Bankning nomi Markaziy bank XKMM
MFO 00014 STIR 201122919

Rahbar

(E.I.Sh)

N.Madaliev

(imzo)

	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi E.I.SH.	NOSIRJON MADALIYEV NURIDDINOVICH
	Imzolangan sana	11 оқт 2022 09:05
	Hujjat kodi	NQ4312460127
	Hulosa kodi	JP7624654835

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

JP7624654835

- 1. Loyihaning turi : Shartnoma**
- 2. Loyihaning nomi: 17-45-49-maktablarni joriy ta'mirlash pudrat shartnomasi**
- 3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: QO'SHTEPA TUMAN XALQ TA'LIMI BO'LIMI tomonidan 10.10.2022 yilda kiritilgan.**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Qo‘shtepa tuman
yuridik xizmat
ko‘rsatish
markazi bosh
yuriskonsulti:**



G‘.SH.MO‘YDINOV

10.10.2022